

**“Smart bank” AJ
Kuzatuv kengashining
2024 yil 13 iyundagi
13-06/1-sonli yig‘ilish bayonnomasi
bilan tasdiqlangan**

**“Smart bank” AJ
Boshqaruvining
2024 yil 10 iyundagi
10-06/1-sonli yig‘ilish qaroriga
1-ilova**

Bank tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Ro‘yxat raqami: I-64

Sana: 14.06.2024 yil

Imzo

**“SMART BANK” AKSIYADORLIK JAMIYATINING
ZAXIRA FONDI TO‘G‘RISIDA NIZOM**

Toshkent – 2024 yil

“Smart bank” aksiyadorlik jamiyatining zaxira fondi to‘g‘risida nizomi (keyingi o‘rinlarda Nizom deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi hamda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlari hamda “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda Bank deb yuritiladi) zaxira fondining maqsadlari, shakllantirish manbalari hamda ishlatilishining umumiy qoidalarini belgilab beradi.

2. Zaxira fondining maqsadi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa mablag‘lar mavjud bo‘lmagan taqdirda zararlar o‘rnini qoplash, korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash va aksiyalarni qaytarib sotib olish uchun tashkil etiladi.

2-bob. Zaxira fondini shakllantirilishi

3. Zaxira fondining miqdori to‘g‘ridan-to‘g‘ri ustav kapitalining hajmiga bog‘liq bo‘ladi va zaxira fondi sof foydadan yillik ajratmalar hisobiga shakllantiriladi.

4. Bankda ustav kapitalining 15 (O‘n besh) foizidan kam bo‘lmagan miqdorda zaxira fondi tashkil etiladi.

5. Bankning zaxira fondi Bank ustav kapitalining 15 (O‘n besh) foiziga yetguniga qadar Bank sof foydasidan har yilgi ajratmalar orqali shakllantiriladi.

6. Bankda har yili Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qaroriga muvofiq Bank sof foydasining 5 (Besh) foizidan kam bo‘lmagan miqdorda zaxira fondiga ajratmalar amalga oshiriladi.

3-bob. Zaxira fondini ishlatishi

7. Bankda shakllangan zaxira fondi Bank Kuzatuv kengashi qaroriga muvofiq amaldagi qonunchilik hujjatlari, Bank Ustavi hamda ushbu Nizomga muvofiq quyidagi maqsadlarda ishlatilishi mumkin:

Bankning zararlari o‘rnini qoplashga;

Bankning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarishga;

imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lashga;

Bankning aksiyalarini qaytarib sotib olishga.

8. Bankning zaxira fondidan ushbu Nizomning 7-bandida ko‘rsatilgan maqsadlardan tashqari boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas, qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

4-bob. Hisob va hisobot

9. Zaxira fondi moliyaviy hisobotlarning halqaro standartlari talablariga va

Bankning hisob siyosatiga muvofiq kapital hisoblarida aks ettirilgan zaxira kapitalini hisobga olish uchun mo'ljallangan 30903-"Umumiy zaxira fondi" balans hisobvarag'ida hisobi yuritiladi.

10. Zaxira fondini shakllantirilishi va ishlatilishining buxgalteriya hisobi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021 yil 26 noyabrda 3336-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi"ga muvofiq amalga oshiriladi.

11. Bank tomonidan zaxira fondini shakllantirilishi va ishlatilishi yuzasidan hisobotlar G'aznachilik boshqarmasi tomonidan yuritiladi va bank boshqaruv organlari talabiga muvofiq ularga taqdim etiladi va/yoki ommaga oshkor etiladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

12. Mazkur Nizom talablariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazorat Bank Boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi.

13. Ushbu Nizomga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

14. Mazkur Nizom bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

15. Ushbu Nizomning alohida bandlari O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi yoki Bank Ustaviga zid bo'lsa, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga va Bank Ustaviga amal qilinadi.